



## ISHCHI KUCHI VA ISHSIZLIK

**Abdug'aniyeva Zulxumor Alijon qizi**

*Qo'qon davlat universiteti Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ishsizlik tushunchasi, uning turlari, aholining qanday qatlami ishsizlar deyilishi va ishsizlik darajasini qanday ko'rsatkichlar orqali aniqlash mumkinligi haqida qoida va ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari ishsizlikka oid nazariyalar hamda ishsizlikni bartaraf etish borasida davlat tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora tadbirlar va takliflar xususida fikrlar ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Ishsizlik darajasi, ishsizlik turlari, Ouken qonuni, ishsizlar, friksion ishsizlik, tarkibiy ishsizlik, ishchi kuchining qiymati, naflilik.

**Аннотация:** В данной статье приведены правила и информация о понятии безработицы, ее видах, о том, какие слои населения называются безработными и по каким показателям можно определить уровень безработицы. Кроме того, представлены теории о безработице, а также меры и предложения, которые должно реализовать государство для ликвидации безработицы.

**Ключевые слова:** Уровень безработицы, виды безработицы, закон Оукена, безработные, фрикционная безработица, структурная безработица, стоимость рабочей силы, рентабельность.

**Abstract:** This article provides rules and information about the concept of unemployment, its types, which segments of the population are called unemployed and by what indicators the unemployment rate can be determined. In addition, theories about unemployment are presented, as well as measures and proposals that the state should implement to eliminate unemployment.

**Key words:** Unemployment level, types of unemployment, Okun's law, unemployed, frictional unemployment, structural unemployment, labor costs, profitability.

O'zbekistonda Ishsizlik tushunchasi rasman 1992-yil "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi bilan me'yoriy kuchga ega bo'ldi (1998-yil 1 mayda ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilindi).

Ishsizlik – bu mehnatga yaroqli aholini ish bilan band bo'lmaslik holati. Ishchi kuchi yoki iqtisodiy faol aholi deganda mehnatga layoqatli yoshdagi ishlayotgan va ishsiz yurgan aholining umumiy soni tushuniladi. Ishchi kuchiga bo'lgan talab miqdorining ishchi kuchi taklifi miqdoridan kam bo'lishi ishsizlikni keltirib chiqaradi.

Ishsizlar – bu ishchi kuchining bir qismi bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan, lekin ishlashni xohlovchi va faol ish qidirayotgan aholidir. Ishsizlikning turlari: -friksion ishsizlik; -tarkibiy (strukturaviy) ishsizlik; -davriy ishsizlik.



Friktsion ishsizlik – bu ixtiyoriy ishsizlik bo'lib, bir ishdan boshqaishga o'tish, yashash joyini o'zgartirish va boshqa shu kabi holatlar bilan bog'liq. Ishsizlikning bu turi doimiydir.

Strukturaviy ishsizlik majburiy ishsizlik turi bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida kasbiy mahoratning mos kelmasligiga va boshqa shu kabi sabablarga ko'ra ishchilarni qisqartirish hisobiga yuzaga keladi. Bu ishsizlik turi ham doimiydir. Friktsion va strukturaviy ishsizlik darajalari birgalikda ishsizlikning tabiiy darajasini ifodalaydi. Namoyon bo'lish xususiyati va vujudga kelish sabablariga ko'ra, ishsizlikning yana tarkibiy, tsiklik, institutsional, texnologik, regional, yashirin va turg'un ishsizlik turlari mavjud. Ishsizlikning tabiiy darajasi – bu shunday holatki, unda ishsizlar soni bilan bo'sh ishchi o'rinlari bir-biriga mos keladi.

Ishsizlar soni

Ishsizlik darajasi = ----- × 100%

Ishchi kuchi

Ishsizlikning asosiy sabablari: \*Aholi ortiqchaligi (umuman jahon iqtisodiyoti mehnat ortiqchaligiga ega va aholi sonining keskin o'sishi bunga yordam beradi); \*Kasaba uyushmalari harakatlari va aholi ijtimoiy-iqtisodiy faolligi bosimi ostida ish haqi stavkalarini muvozanatli darajadan yuqori o'rnatilishi; \*Fan-texnika inqilobi davrida mehnatni kapital tomonidan siqib chiqarilishi; \*Mehnat bozorida monopsoniyaning mavjudligi (monopsonist korxonalar mehnatga haq to'lash shartlarini qo'yadilar va bandlik hajmini pasaytiradilar); \*Past darajadagi to'lov qobiliyatli talab (tovarlar va xizmatlarga talabning yo'qligi mehnatga bo'lgan talabni pasaytiradi, chunki mehnatga talab hosilaviy xususiyatga ega, buning oqibatida esa ishsizlik yuzaga keladi).

Ishsizlik darajasining oshishi natijasida YaIM hajmi kamayadi. Shu sababli mamlakat miqyosida ishsizlikni uning tabiiy darajasida saqlash va tartibga solish iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan qanchalik yuqori bo'lsa, YaIM uzilishi shuncha ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham potentsial hajmdagi YaIM haqiqiy YaIMdan katta bo'ladi. Oukun qonuni - agar haqiqiy ishsizlik darajasi ishsizlikning tabiiy darajasidan bir foizga oshib ketsa, milliy iqtisodiyot YaIMni ikki yarim foizga kamytiradi. Oukun qonunini formulada quyidagicha tasvirlash mumkin:

$(Y - Y^*) / Y^* = -2,5 - 3 (H - H^*)$  Bu erda: Y – real YaIM, Y\* - potentsial YaIM, H – ishsizlikning haqiqiy darajasi, H\* - ishsizlikning potentsial darajasi, -2,5 -3 Ishchi kuchi – bu insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi bo'lib, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hisoblanadi. Ishchi kuchini takror hosil qilish yoki uni takror ishlab chiqarish deganda eng avvalo ishchining mehnat qobiliyatini qayta tiklashi, ya'ni uning ovqatlanishi, kiyinishi, dam olishi va madaniy hordiq chiqarishi tushuniladi. Bu esa ishchi uchun oila, uy-joy va boshqa shart-sharoitlar yaratilishi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari ishchi va xizmatchilarning hozirgi avlodi ma'lum vaqt o'tishi bilan qariydi. Ularning o'rinlarini bosadigan



o'rinbosarlar ham tayyorlanishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa ishchining oilasi, farzandlari bo'lishi lozim, ularning o'sib-ulg'ayishi, o'qishi, zamon talabiga javob beradigan ishchi kuchi sifatida kamol topishi uchun ham shart-sharoit bo'lishi zarur. Ishchi kuchi bozori – bu xo'jalik faoliyati jarayonida ishchi kuchi tovari egalari va uning asosiy iste'molchilari o'rtasidagi oldi-sotdi munosabatlari.

U mehnat sharoitlari va unga haq to'lash miqdorlari, ishchilarning malaka darajasi, ular tomonidan bajarilayotgan ishlarning hajmi, intensivligi va mas'uliyat darajasi bo'yicha tarkib topuvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkab tizimini namoyon etadi. Ishchi kuchining qiymati va iste'mol qiymati (nafliligi). Ishchi kuchining qiymati nafaqat ishchining shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, balki ishchi kuchini takror ishlab chiqarish hamda uning sifatini oshirish jarayonlarini, uning oilasini yetarli darajada ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha hayotiy ne'matlarning qiymatini o'z ichiga oladi. Ishchi kuchi tovarining nafliligi uning mehnat qilish jarayonida o'z ishchi kuchi qiymatidan ortiqcha, ya'ni qo'shimcha mahsulot qiymatini yaratib, kapital egasining foyda olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish layoqati orqali namoyon bo'ladi. Mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solishning 4 asosiy yo'nalishlari:

1. Iqtisodiyotning davlat sektorida bandlik o'sishini rag'batlantirish va ish o'rinlari sonini ko'paytirish dasturlari.

2. Xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlari.

3. Ishchilarni jalb qilishni rag'batlantirish dasturlari.

4. Ishsizlikni ijtimoiy sug'urtalash dasturlari (ishsizlik nafaqasi).

Aholining o'sishi yuqori sur'atlar bilan borayotgan va o'ziga xos aholi tarkibiga ega bo'lgan holatda ishchi kuchini ish bilan band qilish masalasini hal etish tadbirlari:

1) keng faoliyat turlari, yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sharoit yaratish. Birinchi navbatda qishloq xo'jalik xom-ashyosini qayta ishlash, xalq iste'mol mollarini, mahalliy xom ashyodan qurilish materiallari tayyorlovchi xususiy kichik korxonalarni faol rivojlantirishni rag'batlantirish.

2) xizmat sohasini rivojlantirish, aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy-maishiy xizmat va boshqa xizmat turlarini yanada kengaytirish. Bunda ham qishloq joylarda xizmat sohasini rivojlantirishga ustunlik beriladi.

3) qishloqda keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratib, shu orqali yangi ish joylarini ochish, yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish.

4) ishdan bo'shagan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o'qitishni tashkil etishni tubdan o'zgartirish.

Mamlakat miqyosida 3—5% darajasidagi Ishsizlik iqtisodiyot uchun normal holat (Ishsizlik ning tabiiy chegarasi) hisoblanadi.

Ishsizlik darajasini pasaytirish uchun aholi bandligini ta'minlash davlat dasturlari ishlab chiqiladi, korxonalar qurilib, yangi ish o'rinlari tashkil etiladi, xodimlarni yangi kasblarga o'qitish, qayta tayyorlash ishlari amalga oshiriladi, bandlikka yor-dam jamg'armasi tashkil qilinadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ishsizlik>
2. Iqtisodiyot nazariyasi” Umarov I. Raxbar.T.Universitet 2002 y. 7-13-boblar
3. .N.Beknazarov “Iqtisodiy nazariyasi”. T.2005 2-bob.
4. O'lmasov A. “Iqtisodiyot nazariyasi” T 2001 y 2-3 boblar.
5. Iqtisodiy bilim asoslari\_9. E.Sariqov,B. Xaydarov